



Chet tilini o'qitishda innovatsion metodikalar

Qodirova Xushnudaxon A'zamjon qizi –

Oliy ta'limni rivojlantirish va global xamkorlik markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola chet tilini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy va innovatsion metodikalarni o'quvchilar uchun yanada qiziqarli qilish maqsadida turli innovatsion yondashuvlar, shu jumladan, texnologiyalar (onlayn platformalar, mobil ilovalar) dan foydalanish, hamkorlikda o'rganish va loyihaviy ta'limning qo'llanilish yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Maqolada yuqorida ta'kidlangan metodikalarning nazariy asoslari, ularni amaliyotga tatbiq etish usullari va natijalarni baholash mezonlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari esa interaktiv metodlarning o'quvchilardagi til ko'nikmalarini rivojlantirish, motivatsiyasini oshirish va o'qitish samaradorligini ko'tarishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: chet tilini o'qitish, innovatsion metodlar, zamonaviy yondashuvlar, ta'lim texnologiyalari, hamkorlikda ishlash, til ko'nikmalari, o'qitish samaradorligi, motivatsiya.

Инновационные методики в обучении иностранному языку

Аннотация. Данная статья анализирует современные и инновационные методы, используемые в преподавании иностранного языка, в котором рассматриваются различные инновационные подходы и технологии (онлайн платформы, мобильные приложения), которые делают процесс обучения более интересным для учащихся, а также использование технологий, таких как работа в команде, и обучение на основе проектов. В данной статье обсуждаются теоретические основы методик, их реализация и оценивание результатов, которые в свое время способствуют развитию языковых навыков у учащихся, повышение мотивации и эффективности обучения.

Ключевые слова: преподавание иностранного языка, инновационные методы, современные подходы, образовательные технологии, работа в команде, языковые навыки, эффективность обучения, мотивация.

A modern model of speech development in preschool children through artistic expressions: a multimodal approach

Annotation. This article analyses modern and innovative methods of teaching foreign languages to make lessons more engaging by using different technologies (online platforms and apps) as well as teamwork and project-based learning strategies. The article discusses the theoretical foundations of this methodologies, the mechanisms for their practical implementation, and criteria used for evaluating learning outcomes. The

findings of the study confirm the significant role of interactive methods in enhancing learners' language competencies, increasing motivation, and improving the overall effectiveness of the teaching process.

Keywords: *teaching of foreign language, innovative methods, modern approaches, educational technologies, teamwork, language skills, teaching effectiveness, motivation.*

KIRISH

Globallashuv davrida chet tillarini bilish shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishning muhim bir bo'lagi hisoblanadi. Ushbu talabni qondirish maqsadida ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish metodikasini doimiy ravishda takomillashtirish zarur. Shu sababli horijiy davlatlarning ta'lim tizimi hamda metodikalarini o'rgangan holda innovatsion yondashuvlarni izlashga undalmoqda.

Mazkur tadqiqot chet tilini o'qitishda qo'llanilayotgan va potensialga ega bo'lgan zamonaviy interfaol metodlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli, o'zlashtirishda oson va natijador qilish imkonini beradigan usullarni aniqlash hamda ularni amaliy qo'llanilishini ko'rsatib berishdir. Xususan, kommunikativ yondashuvning rivojlangan shakillari va individual yondashuvni ta'minlovchi metodikalar, shu bilan birga texnologiyalardan foydalanish usullari ham atroflicha o'rganiladi. Ushbu ishda keltirilgan natijalar chet tilini o'qitish sohasidagi pedagogik amaliyotni boyitishga xizmat qiladi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chet tilini o'qitishda innovatsion metodikalar mavzusida olib borilayotgan tadqiqotlar so'ngi o'n yillikda sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy pedagogikada an'anaviy usullarning cheklanganligini tan olgan holda, ko'plab izlanuvchilar o'quv jarayoniga yangi interfaollik asosida dars tashkillashtirilishi zaruriyatini ta'kidlamoqda[2]. Xususan, kommunikativ yondashuvning rivojlanishi natijasida tilni amaliy qo'llashga qaratilgan metodik usullar ustunlik qildi. Texnologiyalarning kirib kelishi bilan interfaol o'qitish usullari, masalan, multimediyalar va onlayn platformalardan foydalanishtobora ommalashib bormoqda[3]. Shuningdek, loyihaviy ta'lim, muammolarga asoslangan o'qitish va hamkorlikda o'rganish kabi metodikalar ham chet tilini o'zlashtirishda samaradorlikni oshirishga hissa qo'shadi. Bunday interfaollik hozirgi kunda ta'lim jarayonida eng ommalashib qo'llanilayotgan metodlar hisoblanadi[4]. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodikalarning qo'llanilishi o'quvchilarda avvalo motivatsiyasini oshiradi, ularning faolligini rag'batlantirish va tilni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Bu esa samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

1-jadval.


Chet tilini o'qitishda innovatsion metodikalar bo'yicha adabiyotlar sharhi

Metodika nomi	Asosiy tamoyillar	Afzalliklar	Qo'llanilish doirasi
Kommunikativ metodika	Tilni muloqot vositasi sifatida o'rganish, hayotiy vaziyatlarga yo'naltirilganligi	O'quvchilarni og'zaki nutq ko'nikmalarini tez rivojlantiradi, motivatsiyani oshiradi	Boshlang'ich va o'rta bosqichlardagi barcha yoshdagi o'quvchilar uchun
Loyihaviy metodika (Project-Based learning)	Amaliy loyihalar orqali tilni o'rganish, muammolarni hal qilishga qaratilganlik	Tanqidiy fikrlash, hamkorlik va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi, chuqurroq o'rganishni ta'minlaydi	O'rta va yuqori bosqichdagi o'quvchilarga hamda chet tilini chuqur o'rganuvchilar uchun
Aralash o'qitish (Blended)	An'anaviy va onlayn ta'lim usullarining integratsiyasi,	O'quvchilarning o'z sur'atida o'rganish imkoniyati,	Katta yoshdagi o'quvchilar, oliy o'quv yurtlari, kasbiy ta'lim

Learning)	moslashuvchanlik	texnologiyalardan samarali foydalanish	
Adaptiv o'qitish	Har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va o'zlashtirish darajasiga moslashuvchan o'quv dasturlari	O'quvchilarning bilim darajasidagi farqlarni bartaraf etadi. Har bir o'quvchini potensialini to'liq ochib beradi	Barcha yoshdagi va bilim darajasidagi o'quvchilar, ayniqsa, individual yondashuv talab qilinadigan hollarda

Mazkur tadqiqotda chet tilini o'qitishda innovatsion metodikalarni o'rganish maqsadida aralash tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning ilk bosqichida nazariy tahlil o'tkazilib, chet tilini o'qitishning an'anaviy va innovatsion yondashuvlari, zamonaviy interfaol metodikalar hamda ularning samaradorligini oshirish yo'llari o'rganildi. Ushbu bosqichda mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar va kitoblardan foydalanildi. Keying bosqichda ushbu metodlarning amaliy qo'llanilishi va o'quvchilarning motivatsiyasi, o'qish ko'nikmalari hamda umumiy bilim darajasiga ta'sirini aniqlash uchun eksperimental tadqiqot tashkil etildi. Tajriba jarayonida ikki guruh o'quvchilar ishtirok etdilar: nazorat guruhi an'anaviy metodlar asosida ta'lim oldi, tajriba guruhi esa innovatsion metodikalar (loyihalash asosida o'qitish, blended metod, kommunikativ metod) dan foydalangan holda o'qitildi. O'quvchilarning bilim darajasi va ko'nikmalari eksperiment boshlanishidan oldin va keyin baholash testlari, so'rovnomalar hamda intervyular orqali aniqlandi.

1-chizma.



NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqotlar va eksperimentlarga ko'ra, chet tilini o'qitishda innovatsion metodikalarning qo'llanilishi o'quvchilarning umumiy natijalarida sezilarli yaxshilanish va o'zlashtirish darajasi oshganligini ko'rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan eksperimental guruh, an'anaviy metodikalardan foydalangan nazorat guruhi bilan solishtirildi. Natijaga ko'ra lug'at boyligi o'zlashtirishda 15 foizga yuqori ko'rsatgichni namoyish etdi. Grammatik tuzilmalarni tushunish va qo'llashda esa farq 12 foizni tashkil etdi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda, ya'ni talabalarning erkin va mazmunli muloqot qobiliyatini oshirishda innovatsion yondashuvlar yanada samarali ekanligi aniqlandi. Bu natijalar yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga mos keladi, ular ham yangi texnologiyalar va interfaol usullarning ta'sirini tasdiqlaydi. O'quvchilarning motivatsiyasi va darslarga bo'lgan qiziqishini ham innovatsion metodikalar qo'llanilgan guruhlarda sezilarli darajada oshgan.

2-jadval.

Innovatsion metodikalar qo'llanilganidan so'n o'quvchilarning chet tili o'zlashtirish darajasini taqqoslash


Metodika nomi	O'quvchilarning faolligi (foizda)	Lug'at boyligi o'sishi (o'rtacha)	So'zlashuv malakasi bahosi (balli shkala bo'yicha)
O'yinli metodika	85 %	250 ta yangi so'z	4.2 / 5
Loyihaviy o'qitish (Project-Based Learning)	78 %	220 ta yangi so'z	4.0 / 5
Kommunikativ metodika	70%	190 ta yangi so'z	3.8 / 5
An'anaviy metodika	55 %	150 ta yangi so'z	3.2 / 5
Teskari sinf metodikasi	82 %	235 ta yangi so'z	4.1 / 5

Tadqiqot natijalaridan shuni hulos qilish mumkinki, chet tilini o'qitishda innovatsion metodikalarni qo'llash o'quvchilarni bilim darajasini, o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, o'yinli metodikasi, teskari sinf va loyiha asosida ta'lim kabi interfaol usullar o'quvchilarning o'ziga ishonchini kuchaytirib, faol ishtirok etishga undaydi.

Simsiz texnologiyalar va interfaol platformalardan foydalanish tilni amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[5].

O'qituvchining roli an'anaviy ma'ruzachi pozitsiyasidan fasilitator va murabbiy rolini o'zlashtirishga o'tadi. Bu esa o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni taqozo etadi. Ushbu metodikalarning birlashtirilgan qo'llanilishi natijasida o'quvchilar nafaqat tilni yaxshiroq o'zlashtiradilar, balki mustaqil izlanish ko'nikmalarini ham shakillantiradilar. Shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirishda ham innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

2-chizma.



XULOSA

Ushbu tadqiqot chet tilini o'rgatishda innovatsion metodikalarning samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangi interaktiv yondashuvlar talabalar bilim ko'nikmalari (nutq, tinglash, yozuv va

o'qish) ni rivojlantirishda, ularning o'ziga ishonchini oshirish orqali o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlashda sezilarli darajada ustunlikka ega[6]. Xususan, kommunikativ yondashuv, loyihaviy ta'lim va texnologiyalardan foydalanish kabi metodikalar tilni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday innovatsion yondashuvlarnafaqat nazariy bilimni mustahkamlaydi, balki talabalarni mustaqil izlanish orqali ko'plab bilimlarga ega bo'lishga va muammoli holatlarni hal qilish qobiliyatlarini ham shakillantiradi. Shuning uchun, chet tilini o'qitish jarayonida ushbu metodikalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi va kelajakda ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, innovatsion metodikalar zamonaviy ta'lim talablariga to'la javob beradi va o'quvchilarning butun jahonda muvaffaqiyatli bo'lishida zarur bilim va ko'nikmalarni shakillantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababdan, interfaollik ortidan ta'lim tizimida chuqur o'zgarishlar hamda oson o'zlashtirish jarayonlarini tashkil etish ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamatov A "Chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar." 42-52 b
2. Brown H. D "Principles of language learning and teaching" Pearson Education
3. Abdullayeva N "Interaktiv usullar yordamida chet tilini o'qitish samaradorligi" 78-85
4. Richards J. C & Rodgers T. S "Approaches and methods in language teaching" Cambridge University Press
5. Kurbonov S "Talabalarning chet tili ko'nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ metodlarning ahamiyati" Pedagogika ilmlari jurnali 112-119 b
6. Tojiboyeva G "Chet tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" Uzbekistan Journal of Applied Linguistics 67-74 p
<https://journal.jdpu.uz>
<https://edu.uz>
<https://tiame.uz>
<https://tspu.uz>
<https://uzjal.uz>